



SEMIZLIK VA TUXUMDON POLIKISTOZI: METABOLIK MUVOZANATSIZLIKNING KLINIK BELGILARI

Bekmurodova Malika Ro‘zimurod qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, "Davolash ishi-2" fakulteti

5-bosqich talabasi

bekmurodovamalika15@gmail.com

Samarqand, O‘zbekiston.

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada hozirda reproduktiv yoshdagi ayollar orasida keng tarqalib borayotgan semizlik va tuxumdon polikistoz sindromi o‘rtasidagi bog‘liqlik hamda metabolik muvozanatsizlikning klinik belgilari hamda yuzaga keltirayotgan oqibatlarining qanchalik jiddiy ekanligi haqida so‘z boradi.*

KALIT SO‘ZLAR: *reproduktiv yosh, metabolik sindrom, tuxumdon polikistoz sindromi, past molekulali xolesterin,ginoid semizlik,android semizlik, insulinorezistentlik,visseral yog‘.*

KIRISH: odam organizmi o‘z hayoti davomida murakkab rivojlanish bosqichlari bosib o‘tadi: neonatal, chaqaloqlik, bolalik ,o‘smirlik, yetuklik, qariyalik.Har bir davrda organizm ichki muhit suyuqliklari doimiy o‘zgarishda bo‘ladi.Bu o‘zgarishlardan 1 grammning milliondan bir qismda ishlab chiqariladigan va organizmning muhim hayotiy jarayonlarini boshqaradigan garmonlar o‘zgarishi har doim ham bir tekis kechmaydi.Ayniqsa ayollar organizmida reproduktiv - urchish yoshiga yetganda metabolik o‘zgarishlar ,xususan organizm tana massasining ortishi bir qator garmonal o‘zgarishlarga olib keladi.Bu oqibatlarining eng jiddiylaridan biri tuxumdon polikistoz sindromidir.Bu kasallik hozirgi kunda O‘zbekiston va dunyoning barcha davlatlarida jiddiy muammo sifatida o‘tib bormoqda, shu bilan birga aholi inflyatsiyasiga jiddiy ta’siri yanada ortishi kuzatilmoqda.



ASOSIY QISM: Modernizatsiya jadal kechayotgan insoniyat olamida uning aks ta'siri insoniyatni ham chetlab o'tmagan. Hayotimizda foydalanayotgan oziq-ovqat mahsulotlaridan kiyim -kechaklar, dorilar va tibbiy xizmatlar - barchasini texnologik usulda olinayotgan kimyoviy moddalar egallab borayotganini ko'ramiz. Bu o'z navbatida odam organizmida, ayniqsa yetilish va ko'payish yoshida o'zining zararli oqibatlarini ko'rsatib kelmoqda. Ancha yillik kuzatishlar mobaynida ayollar o'rtasida bepushtlik muammosi, tabiiy urchish jarayoni va homiladorlikning kechishi, tug'ruq jarayoni qiyinlashib bormoqda. Tekshirishlardan shu ma'lum bo'ldiki kimyoviy aralashmali oziq ovqat mahsulotlarning yoshlar orasida ko'p iste'mol qilinishi, past molekulali xolesterinning to'qimalarda oshib borayotgani, kimyoviy moddalarning organizm genetik strukturasining buzilishi va autoimmun jarayonlarning avj olishi bu muammolarni yuzaga keltirib chiqarayotgan metabolik sindrom, ayniqsa semizlikning oqibatlari ekani ma'lum bo'ldi.

Semizlik – bu organizmdagi ortiqcha yog' to'qimalarining patologik to'planishi bilan tavsiflanadigan murakkab endokrin-metabolik kasallik bo'lib, energetik disbalans, insulin rezistentligi, leptin-grelin disregulyatsiyasi hamda gormonal o'zgarishlar natijasida rivojlanadi.

Ayollarda semizlik organizmdagi tana yog'ining taqsimlanishiga qarab ikki asosiy fenotipga bo'linadi: **ginoid** (ayolcha, “armut shaklida”) va **android** (erkakcha, “olma shaklida”) semizlik. Har bir tur o'ziga xos endokrin-metamorfoz xususiyatlarga ega bo'lib, turli metabolik va kardiovaskulyar xavflarni yuzaga keltiradi.

- **Ginoid** (ayolcha, “armut shaklida”) semizlik:

Xususiyatlari: Tana yog'lari asosan son, dumba va pastki ekstremitalar sohasida yig'ilib, periferik yog' to'planishi bilan tavsiflanadi. Buning zahirida estrogen giperproduksiyasi va progesteron bilan nisbatining buzilishi, yog' to'qimalarida



lipogenezin faollashishi va lipolizning sekinlashishi, genetik moyillik o'zgarishlari sababchi bo'ladi.

- **Android** (erkakcha, “olma shaklida”) semizlik:

Xususiyatlari: Yog' asosan qorin, bel va ichki organlar atrofida to'planib, abdominal va visseral yog'lanish bilan tavsiflanadi, bu esa metabolik sindrom bilan bog'liq kasalliklar xavfini oshiradi. Buning zahirida insulin rezistentligi va giperglikemiya, androgen gormonlar gipersekretsiyasi, menopauza davrida estrogen yetishmovchiligi va progesteron darajasining pasayish, giperkortizolemiya, gipofiz bezi yetishmovchiligi sababchi omillardandir.

Reproduktiv yoshda android tipdagi semizlikning uchrashi bu xavfli holatdir. Bu xavfli metabolik o'zgarish tuxumdon polikistozining asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Tuxumdon polikistoz sindromi – gipotalamo-gipofizar-ovarial disbalans fonida androgen sekretsiyasining ortishi, insulin rezistentligi va metabolik sindrom bilan kechuvchi oligoovulyatsiya yoki anovulyatsiya, hiperandrogenemiya va polikistik tuxumdonlar bilan tavsiflanadigan endokrin-metabolik patologiya bo'lib, android tipdagi semizlik va reproduktiv disfunktsiya bilan kechadi. Tana massasing oshishi bilan organizm to'qimalarida qator patogenitik reaksiyalar ishga tushadi: insulinorezistentlik, tuxumdon va buyrakusti bezidan androgenlar ishlab chiqarilishining oshishi, gipotalamusda follikula stimullovi va lyutenlovchi gormonlar markaziy disbalansi, progesteron sekretsiyasi kamayishi va o'z navbatiga tuxumdonda ko'plab yetilmagan follikular kistalar paydo bo'lishi kabi patologik jarayonni keltirib chiqaradi.

Semizlik etiologyali tuxumdon polikistozi sindromi klinik belgilari:

- Giperandrogenemiya – girsutizm, akne, seboreya, androgenik alopetsiya;



- Menstrual disfunktsiya – oligoovulyatsiya, anovulyatsiya, oligomenoreya, amenoreya;
- Insulin rezistentligi – giperglikemiya, gipinsulinemiya, qora akantozlar;
- Metabolik sindrom – giperglikemiya, gipertrigliseridemiya, dislipidemiya, arterial gipertoniya;
- Ovulyator disfunktsiya – lyuteal faza yetishmovchiligi, bepushtlik, follikulogenez buzilishi;
- Adipoz-gormonal disbalans – leptin rezistentligi, grelin gipersekresiyasi, adipokin disregulyatsiyasi;
- Yallig‘lanish va oksidativ stress – interleykin-6, to‘qima nekroz faktori- α , C reaktiv oqsil gipersekresiyasi - tuxumdon stromasining fibrozlanishi;
- Jigar metabolik buzilishi – semizlik va insulin rezistentligi ta’sirida lipid infiltratsiyasi;
- Kortizol disbalansi – giperkortisolizm, stress gormonlar miqdorining yuqorilashuvi;

Bu omillar yillar davomida vujudga keladi va eng kamida 5-7 yil muddat ichida rivojlanadi. Kasallik alomatlariga e’tiborli bo’lmaslik, turli xil dori vositalarni asossiz qabul qilish, simptomatik turli mutaxasislarga davolanish, endokrinologga kech murojaat qilish yoki yo’naltirish organizmda ortga qaytmas buzilishlarga, surunkali somatik kasalliklarga va o’smir qizlar va fertil yoshdagi ayollarda qaytmas bepushtlikning rivojlanishiga sabab bo’lyabdi.

Yuqoridagi belgilar va oqibatdan ko’rinib turibdiki, metabolik sindrom hisoblangan semizlik odam sog’ligi, turmush tarzi, hayotiy jarayonlariga ta’sir etibgina qolmay, balki mehnatga yaroqlilik va ko’payish davrida organizm



yashovchanlik xususiyatlari va kelajak avlod qoldirish – nasl muamosini keltirib chiqaryabdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alan H. DeCherney, Lauren Nathan, Neri Laufer, Ashley S. Roman. Current Diagnosis & Treatment: Obstetrics & Gynecology, 12th edition. – USA: McGraw-Hill education, 2019.
2. Joseph Loscalzo, Anthony S. Fauci, Dennis L. Kasper, Stephen Hauser, Dan Longo, J. Larry Jameson. Harrison's Principles of Internal Medicine, 21st edition. – USA: McGraw Hill Professional, 2022.
3. Barbara L. Hoffman, John O. Schorge, Karen D. Bradshaw, Lisa M. Halvorson, Joseph I. Schaffer, Marlene M. Corton. Williams Gynecology, 4th edition. – USA: McGraw-Hill Education, 2020.
4. American College of Obstetricians and Gynecologists (ACOG) (www.acog.org)
5. Endocrine Society (www.endocrine.org)
6. Mayo Clinic (www.mayoclinic.org)
7. World Health Organization (WHO) (www.who.int)
8. Е. В. Уварова. Руководство по гинекологической эндокринологии. – Россия: ГЭОТАР-Медиа, 2017.
9. В. И. Кулаков. Эндокринная гинекология. – Россия: ГЭОТАР-Медиа, 2009.